USMON NOSIR SHE’RIYATINING HAYOTIYLIGI

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi Aliyeva Dilshoda

Termiz davlat pedagogika instituti tillar fakulteti 1-bosqich talabasi

Karimova Dilchehra Akbarali qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada qisqagina umri davomida o‘zbek adabiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ijodkor Usmon Nosirning she’riyati xususida so‘z yuritiladi. Shoir ijodidagi she’rlarning jozibadorligi, hayotiyligi hamda sobiq sho‘ro davrining jabr-zulmlari aks ettiriladi.

Kalit so‘zlar: bolalik, ona timsoli, tabiat tasviri, badiiy obraz, qatog‘on qurbonlari, davr zulmi.

Kapalakning gul emganin ko’rdim

Eslab kettim seni, malagim

Sen berdingmi shuncha shirin she’rni

Ey, barglari ko’m-ko’k palagim.

Bolalikning beg‘ubor paytlari tasvirlangam yuqoridagi satrlar iste’dodli shoir Usmon Nosir qalamiga mansub. Bolalik qanday go‘zal va beg‘ubor davr. Bu davr har bir inson hayotidagi eng unitilmas paytdir. Yosh shoir Usmon Nosir ham uni yuqoridagi satrlar orqali go‘zal tasvirlab berilgan. Ijodkor bolalikni “gul” ga “barglari ko’m-ko’k palak” ka, go‘zal “malak” ka o‘xshatadi. Haqiqatdan ham bolalik davri inson umrining eng gullagan davrdir. Bu davrlarda qanchalik qiyinchilik va musibatli kunlar bo’lmasin inson ulg‘ayganidan so‘ng, uning tashvishlari kishiga totli bo’libv tuyulaveradi. Vaqt o‘tgani sayin uni sog‘inib, bolalik davriga qaytgisi kelaveradi.

Usmon Nosir Lirik shoir edi. Uning talqinidagi lirik qahramon tabiat bilan to‘g‘ri muloqotga kirishadi, suhbat quradi, u bilan dardlashadi.

Yurganmisiz birga oy bilan

Oqshom payti ko’m-ko’k o’rmonda?

Maysalarga shabnam qo’nganda

Shunday yaxshi, tinch bo’lar ekan!

Ushbu she’rning birinchi misralarida osmonda jim turgandek tuyiladigan oy harakatga tushadi. U shoirga hamroh bo‘lib, ko‘m- ko‘k o‘rmon oralab yuradi. Oy ko‘rinib turgan payt sokinlik paydo bo‘ladi. Atrof jim-jit bo‘lib qoladi. Maysalarga tunda shudring tomchilari tomib, ertalab ularning yaproqlarida suv tomchilari bo‘ladi. Oy chiqqan tunda bo‘ladigan bu holatlar shoirga sokinlik, tinchlikni hadya qiladi.

Ijodkorning sokinlik istashining sababi esa sobiq sho‘ro davlatida talvasalar kuchayganligi, xalq orasida yetishib chiqqan ko‘plab ziyolilarni ta’qib etish yanada avj olganligi edi. Bo‘lg‘usi shoir endigina kamolga to‘lib kelayotgan bir paytda gazeta, jurnallar va tez-tez chaqirilib turiladigan majlislarda shoirlar va yozuvchilar ijodini qaralashib ularga ko‘p tuhmat gaplarini aytishar edi. Yozuvchilarning ko‘pchiligi “xalq dushmani” degan ayblov bilan qamalishgam. Bazilari uzoq Sibir o‘lkalariga surgun qilingan edi. Usmon Nosir, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon singari jadidchilik harakatlarining yetakchilarini o‘ziga ustoz deb bilgan. Afsuski, Usmon Nosir ham ustozlari qatori qatag‘on qurboni bo‘lgan. Davr zulmi kuchaygan paytda birorta ham shoir yoki yozuvchi erkin ijod qilolmagan.

Zamondosh shoirimiz Xurshid Davron bir she’rida “Eng daxshatli sukunat”-shoir jim yursa” – deb aytib o‘tadi. Haqiqatdan ham shoir jim yursa, u ijod qilmasa, butun xalq sukunatda qoladi.

Shoirning lirikasida muqaddas ona timsoli ham tasvirlangan.

Esingdami, g‘arib ona

U qishlarning zahri?

Yuzni momotaloq qilgan

U yillarning qahri?

Bu satrlar ijodkorning talabalik yillarida onasiga yozgan she’riy maktubidagi “Oq yuvib oq tarab” she’ridan parcha edi. Ona- bizga hayot bergan inson. Ona bu bizni nafas olishimiz uchun o‘limga ham tayyor bo‘lgan jonkuyar ayol. Usmon Nosir bu she’rida tabiatni onaga qiyoslab, o‘zini onasiga talpinayotgan farzand deb hisoblaydi.

Uning she’rlarida har bir fasl, oy, quyosh, yulduzlar va boshqa narsalar umumlashma badiiy obraz darajsiga ko‘tariladi.

Lampam yonur… Yaralangan qanotday og‘ir

O‘y bosadi. Yuragimda go‘yo sel oqar.

Qiynalaman. Tirishaman. Hushim parishon.

O‘tmish, hozir va kelajak ko‘rinur har on.

Quldorlik voqealari tasvirlangan ushbu misralar Usmon Nosirning “Nil va Rim” nomli yirik she’riy asaridan parcha edi. Qadimgi Rim shahrida bo‘lgan ulkan imperiya jahonning ko‘plab mamlakatlarini bosib olib, ularning xalqlarini qul qilgan edi. Misrda fir’avnlar o ‘zlarini yerdagi Xudo hisoblab, o‘z xalqiga va yana boshqa xalqlarga uy hayvonlaridek munosabatda bo‘lishgan. Bu davrda inson umrining umuman qadri bo’lmagan. O‘tmishdagi ushbu voqealarni qalban his qilib o‘qigan va o‘z zamonasida ham qullikning, inson xo‘rligining turli ko‘rinishlarini kuzatgan yosh shoir Usmon Nosir qullarning to‘kayotgan ko‘z yoshini Nil daryosiga o‘xshatadi. Sariq qumlar orasidan qon rangli quyosh ko‘tarilar.

Nil oqadir- qullar to‘kkan yosh.

Faryodlarga chidolmaydi yer bilan osmon.

Ro qayerda? Azirisa? Qiynaydi Tifon!

Tarix darsliklaridan ma'lumki Ro, Azirisa, Tifon qadimgi misrliklar tushunchasidagi xudolar. Mazkur misralarda shoir qullarning faryodi shunchalik daxshatliki, hattoki unga yer va osmon ham chidolmasligini ta'kidlamoqda. Fir'avnlarning qabri bo'lmish Misr ehromlari mamlakatdagi eng mustahkam tosh haykallari mana necha asrdan beri "na odamdan, na zamondan qo'rqadi'.

Shoir nazarida esa bularning barchasi "G'azabini yutib o'lgan qullar dasti" dir. Usmon Nosirning ustozi Cho'lpon insonga murojaat etib: "Bo'yin egma, kishan kiyma-ki, sen ham hur tug'ilg'onsen!"- degan edi. Darhaqiqat, inson bolasi tug'ilibdiki, qullikka, erksizlikka qarshi kurashib keladi.

Usmon Nosir yosh bo'lishiga qaramay o'zbek yozuvchilari va shoirlari orasida dong taratgan edi. "Usmon she'riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo'ronday! U shunday to'polon va to'lqin bilan keldiki, uncha-muncha she'riy uslub va ijodni to's-to's qilib yuboradi."- deb yozadi shoir Turob To'la.

Usmon Nosir o'zining ortiqcha jimjimadorlik, g'alizlikdan xoli, soda va mazmunli she'rlari bilan adabiyotimizni boyitdi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Usmon Nosir she'rlari xalqimiz qalbida mangu yashab kelmoqda shoirning chaqmoqdek umri va ijodi hali ko'p asrlar xalqimiz qalbini yoritib turadi.

Bugungi kunda biz yoshlarning asosiy vazifalarimizdan biri Usmon Nosir singari yetuk adabiyotimiz vakillarining ijodini o'rganish va ularning bizlarga qoldirgan meroslarini mangu qalbimizda saqlab, kelgusi avlodga yetkazishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
2. Истиқлол. Адабиёт. Танқид... / Тузувчи ва нашрга тайёрловчилар: С. Қуронов, Р. Ҳайдарова, Р. Ҳакимжонова. – Т.: «Turon zamin ziyo». 2014, – 312 б.
3. 1. “Yo‘lchiman, manzilim ufqdan nari // Jahon adabiyoti. – 2012. №11, 176-177 2-b.
4. Ibrohim qizi M. Shoir boqiy yashaydi // Diydor. – 2002. 3-b.
5. Matjon S. Chaqmoq umrli shoir // Til va adabiyot ta’limi. – 1992. –№5-6., 13-14 b.